

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Babaev Djaxongir Ismailbekovich</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Azходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

09.00.00 – FALSAFA FANLARI - PHILOSOPHICAL SCIENCES**Received:** 15 January 2026**Accepted:** 2 February 2026**Published:** 14 February 2026*Article / Original Paper***CONTEMPORARY TRENDS IN THE STUDY OF THE NATURE OF HUMAN CONSCIOUSNESS****Nargis Abdukhalilovna Alimatova**

Associate Professor, Department of Philosophy

Tashkent State University of Economics

Doctor of Philosophy (DSc)

E-mail: nargis2207@gmail.com

Abstract. This article theoretically analyzes the problem of consciousness as an area of modern philosophy that studies the functioning of the individual human brain. The problem of consciousness is described as an important part of ontology. Approaches to the problem of consciousness have been studied in the history of philosophy. The content of the most recent concepts of consciousness in modern Western philosophy is highlighted. Contemporary trends in the study of the nature of the human mind are examined.

Keywords: "projective theory of consciousness", Alfred Pereira, "three-aspect monism", neutral monism.

INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI**Alimatova Nargis Abduxalilovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Falsafa" kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Mazkur maqolada ong muammosi zamonaviy falsafaning alohida inson miyasining funksiyasini o'rganuvchi sohasi sifatida unda tadqiq etiladigan masalalar nazariy jihatdan tahlil etilgan. Ong muammosi ontologiyaning muhim bir qismi sifatida tavsif etilgan. Falsafa tarixida ong muammosiga bo'lgan yondashuvlar o'rganilgan. Hozirgi zamon inson ongining tabiatini o'rganishning zamonaviy tendensiyalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: "ongning proyektiv nazariyasi", Alfred Pereyra, "uch aspektli monizm", neytral monizm.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N12>

Kirish. Globallashuv sharoitida turli xil axborotning mamlakatimiz yoshlarining ongiga ta'siri kuchayib borish tendensiyasi mavjud. Jumladan, birinchidan, turli xil diniy-ekstremistik, radikal g'oyalar, ikkinchidan, ommaviy madaniyat, g'arb kishilarining hayot tarzi ommaviy axborot vositalari orqali namoyish etilmoqda. Yoshlarimizni axboriy tahdidlardan himoya etish zarurati vujudga kelgan ayni davrda ong muammosini atroflicha tadqiq etish, zamonaviy yondashuvlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish istiqbollari raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish mo'ljallangan. Raqobatbardosh kadrlar esa dunyoqarashi keng, ongi yuksak bo'lgan, tafakkuri ijodiy, kreativ, tanqidiy, o'z fikriga ega bo'lgan, innovatsiyalar yaratishga yo'naltirilgan insonlar bo'lishi lozim. Mazkur maqsadlarga erishish uchun ham ongning mohiyati, tabiatini tadqiq etish lozim. Chunki

raqobatbardosh kadrlarni shakllantirish uchun ularning ongiga qanday ta'sir etish metodlarini bilishimiz kerak.

Adabiyotlar tahlili. Falsafadagi ong muammosi xorijiy va o'zbekistonlik tadqiqotchilarning ilmiy asarlari, maqolalarida quyidagicha yoritilgan. Braziliyalik faylasuf A.Pereyra ongning proyektiv nazariyasi va uch aspektli monizm konsepsiyasini taklif etgan [1]. Rossiyalik tadqiqotchilar Mombey-ool S.M. va Sitnikov V.L. [2] yoshlar ongida “men” va “u” obrazlarining tuzilishi va mazmunini o'rgangan, Knigin A.N. [3] o'z qo'llanmasida tabiiy realizm metodologiyasini qo'llagan holda ong muammosini atroflicha tadqiq etgan, Mixaylov I.F. [4] kibermuhitda ongning namoyon bo'lish xossalarini tadqiq etgan, Kovshov Ye.M. [5] zamonaviy falsafada mavjud ongni o'rganishga bo'lgan yondashuvlarni tahlil qilgan, o'zbekistonlik B.X.Karimov [6] ongning kelib chiqishi, uning ilmiy asoslari, I.P.Pavlov, I.M.Sechenov va Zigmund Freyd ta'limotlar haqidagi fikr yuritilgan, ong haqidagi ilmiy — falsafiy va psixologik nuqtai nazarlar umumlashtirilgan. Xakberdiyev A.K. [7] tomonidan falsafa tarixida ongni tushunish paradigmalari yoritilgan.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida taqqoslash, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik birligi kabi ilmiy metodlardan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. “Ong muammosining ko'p qirraliligi va o'ta murakkabligi turli xil konsepsiyalarning keng spektrini keltirib chiqardi. XX, XXI asr ong konsepsiyalari, falsafiy nazariyalari bilan chegaralanadigan bo'lsak, materialistik va idealistik monizm nazariyalari, dualizm, funksionalizm va boshqalarni keltirish mumkin. Ta'kidlash kerakki, fanda ongni va uning holatlarini tushunish hamda talqin etish tadqiqot subyektlari tomonidan egallangan falsafiy pozitsiyaga bog'liq. Ko'plab falsafiy va ilmiy nazariyalarni shartli ikki guruhga bo'lish mumkin”. [8; 45-b.]

Birinchi guruhga ongni lokal hodisa deb bilib, ong holatlarini miyaning turli qismlarida sodir bo'layotgan neyron jarayonlardan keltirib chiqishga urinadilar. V.V.Vasilyev ta'kidlashicha, tadqiqotlar miya qanday qilib subyektiv tajriba asosi bo'lishi mumkin?—degan savol atrofida bo'ladi. [9; 25-b.] Birinchi navbatda bu guruhga analitik falsafa va dialektik materializm nazariyalari kiradi. Ongning analitik falsafa nazariyasi quyidagi konsepsiyalarda o'z ifodasini topadi: D. Dennetning ko'plab proyektlar nazariyasi, A. Revonsuoning emerdjent materializm nazariyasi, J.Serl biologik naturalizmi, D. Chalmersning naturalistik dualizmi, A. Noyening sensomotor nazariyasi va boshqalar.

Dialektik materializm konsepsiyasida ong yuqori darajada tashkil topgan materiya mehnat faoliyati jarayonida shakllangan inson miyasining xususiyati, deb hisoblanadi. K.Marksga ko'ra, ideallik inson miyasiga o'tkazilgan va unda qayta ishlangan moddiylikdir. Ideallik namoyon bo'lish munosabati sifatida shakllangan. Unda bir predmetlar (so'zlar, gaplar va boshqalar) boshqa predmetlarni (stol, osmon va boshqalar) o'zlari ular bilan o'z moddiy asosiga ko'ra bog'lanmagan bo'lsa-da, taqdim etadi. E.V.Ilyenkov o'zining Zagorsk shahrida ko'r va kar bolalar bilan o'tkazilgan eksperimentida ong ideal fenomen sifatida organizmning genetik shartlangan jarayonlarida emas, balki individda va uning miyasida o'z aksini topuvchi ijtimoiy predmetli amaliy faoliyatida tug'ilishini isbotlab berdi. Mazkur konsepsiya nima uchun hayvonlar to'dasida o'sgan bolalarda ong shakllanmasligini tushuntiradi.

Falsafiy nazariyalardan tashqari fanning o'zida shakllangan nazariyalar mavjud. “Global ish makoni nazariyasi (B.Baars), neyrobiologik nazariya (F.Krik, K.Kox), dinamik yadro nazariyasi (D.Tononi, Dj.Edelman),

talamokortikal aloqa nazariyasi (R.Linas), rekurrent qayta ishlash nazariyasi (V.Lamme), mikroong nazariyasi (S.Zeki), somatik markerlar nazariyasi (A.Damasio) ularga kiradi. Ularning mualliflari neyrobiologlar, psixologlar, ya'ni bevosita ilmiy faoliyat bilan mashg'ul kishilar. Ong muammosining zamonaviy tadqiqotchisi A.Revonsuo ta'kidlashicha, falsafiy nazariyalardan farqli o'laroq ongning empirik nazariyalari "ongning u yoki bu ma'noda boshda joylashganligi" to'g'risidagi fikrlarga qo'shiladilar. Shunga qaramasdan ularning mualliflari ongning bazaviy shakllari, ongning neyronal mexanizmlari va ong bilan yuqori tartibli kognitiv funksiyalarning aloqadorligi to'g'risida yagona kelishuv yo'q".[10; 254-b.] Ular tadqiqotlarining umumiy vazifasi miya neyron tuzilmalari bilan ongning turli holatlarining korrelyatlarini topishdir.

Ongning o'zgargan holatlarini ko'rib chiqishga o'tayotganda ta'kidlab o'tish kerakki, ular to'g'risida na analitik falsafa va na dialektik materializmda aytib o'tiladi. Ular materiya va ong, ong va miya mutanosibligi umumiy muammosi tahlili bilan chegaralanadilar. A.Revonsuoning tadqiqotlari istisno bo'lib, u ushbu muammolarni emerdjent materializm pozitsiyasidan tushuntirishga harakat qiladi. Unga ko'ra ong bilan bog'liq fenomenlar miyaning elektrik faolligining turli darajalariga bog'liq, lekin bunga materializm tushuntirib bera olmaydigan holatlar: tanadan tashqari hissiyotlar, o'lim oldidagi hissiyotlar qarshi turadi.

Ongning uyg'oqligi va faolligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ongning kundalik holati tushunchasi, anglangan kechinmalarning ortga qaytmas o'zgarishlari ongning o'zgargan holatlariga (OO'H) kirmaydi. Oxirgilar turli xil subyektiv kechinmalarning rang-barang yig'indisidan iborat. Ularga gipnoz, noodatiy tushlar, meditatsiya, ibodat, trans holatlar va boshqalar kiradi. Keltirilgan ongning o'zgargan holatlariga ba'zan "ongning kengaytirilgan holatlari" deb ataluvchi ongning yuqori darajadagi g'ayriodatiy holatlarini ajratib ko'rsatadilar.[11; 279-b.] Ularda inson diqqatning yoki hissiyotlar yoki kognitiv qobiliyatlar noodatiy va yuqori darajalariga erishadi. Ular inson uchun shaxs dunyoqarashi va psixologiyasining o'zgarishiga olib keluvchi ijobiy, ahamiyatli va muhim kechinmalar bilan bog'liq. Mazkur holatlar ham tabiiy fiziologik va psixologik fenomenlar sifatida, ham chuqur tushunish, olam bilan birlashuv, narsalar mohiyatini kutilmaganda kashf etish yoki unga chuqur kirish, Koinotning tuzilishi to'g'risidagi bilimning nogahon yaraqlashi sifatida paydo bo'lishi mumkin. Ongning bunday holatlariga meditatsiyani, "oqim" holatiga o'xshash optimal hissiy kechinmalar, hind yogasidagi "samadxi" holati, ruhning tanadan chiqishi ko'rinishidagi tanadan tashqari kechinma, o'lim oldidagi kechinma, mistik kechinmalarni kiritishadi. Yuqorida keltirilgan G'arbda mashhur falsafiy va ilmiy nazariyalardan birortasi ham bunday kechinmalarning kelib chiqish sababini ko'rsatmaydilar. Tahminlarga ko'ra, tanadan tashqari kechinmalarni miyaning ba'zi nuqtalarini stimulyatsiya qilish orqali chaqirish mumkin. Ammo bunday holatlar inson aralashuvisiz qanday vujudga kelganligi to'g'risidagi savolga hech kim javob bermaydi.

"Ong nazariyalarining ikkinchi guruhiga zamonaviy fan yutuqlarini e'tiborga olgan holda ong, materiya va miya mutanosibligi muammosini boshqa dunyoqarash tizimi nuqtai-nazaridan ko'ruvchi qarashlar va konsepsiyalar kiradi. Stenford universiteti professori E.Tiller tomonidan Koinotning olam makonini to'ldiruvchi ko'p o'lchovli golografik tarmoq-maydon tuzilma sifatidagi modeli taklif etilganki, uning bog'lanish nuqtalarida kishilarning niyatlari va fikrlari to'planib, klasterlarni hosil qiladi".[8] Ularga esa bizning moddiy dunyomiz energetikasini belgilovchi va hayotimiz hodisalarini shakllantiruvchi dunyoviy ruhiy ibtido,

Absolyut ta'sir ko'rsatadi. Angliyalik fizik D.Bom plazmani tadqiq etish jarayonida barcha zarrachalarning kelishilgan harakatini ko'rib hayron qolgan. Bu fenomenni tushuntirish uchun ma'lum maydon borligini tasavvur etib, ushbu maydonning kuchi masofa kattarsa ham kamaymaydi, kuch esa butun makon bo'yicha teng taqsimlangan. Mazkur maydonni u kvant potentsiali deb atadi. Bu maydon elektronlarni atrofda ro'y berayotgan barcha hodisalar to'g'risida axborot bilan ta'minlaydi.

D.Bomning gipotezasidan mustaqil ravishda rus tadqiqotchisi G.I.Shipov XX asr oxirida fizik vakuum tashuvchisi bo'lgan Koinotning to'liqsimon axborot maydoni to'g'risidagi nazariyani shakllantirdi. XX asr davomida fizikada 4 fundamental o'zaro aloqadorlik: elektromagnit, gravitatsion, kuchli va kuchsiz maydonlar ma'lum edi. G.I.Shipov tomonidan 5-alooqadorlik aylanma harakatning natijasi sifatidagi informatsion aloqadorlik — atomdan tortib Koinotgacha, informatsiya tashuvchi aylanish maydonlari topildi. Bunday maydonlar ikki turda mavjud: fazoning aylanma harakatidan kelib chiquvchi birlamchi torsion maydon va material obyektlar aylanishi, fizik vakuumning buzilishi natijasi bo'lgan ikkilamchi torsion maydon. G.I.Shipov taklif etgan dunyo modelida reallikning yettita iyerarxik bog'langan darajasi bo'lib, ular uzilmas birlikda mavjud. Iyerarxiyaning eng yuqorisida "Absolyut hech nima" joylashgan. Uni ta'riflashning imkoni mavjud emas va u quyidagi darajada mavjud bo'lganlarning tashkiliy asosidir. "Keyingi quyida joylashgan qavat birlamchi torsion maydon Koinotning axborot maydoni bo'lib, uni xususiyatlariga ko'ra Koinot ongi maydoni deb atash mumkin".[12; 46-b.] "U makon-zamon aylanishlaridan iborat bo'lib, energiya bilan emas, balki axborot bilan to'yingan. Birlamchi torsion maydonlar o'z navbatida plazma, gazlar, suyuqliklar va qattiq jismlar vujudga keladigan fizik vakuumga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Akademik V.P.Kaznacheyev rahbarligida o'tkazilgan eksperiment tirik organizm hujayralari tomonidan kosmik informatsiya oqimlarini idrok etishi va boshqarishini isbotladi".[13; 48-b.]

"Torsion maydonlar vakuumning har qanday buzilishi natijasida paydo bo'ladi. Shuningdek, insonning fikrlari va so'zlari ta'sirida ham. Biologiya fanlari doktori, akademik A.P. Dubrov inson fikrining tirik va notirik materiyaning barcha strukturaviy darajalari bilan aloqasi distant xarakterga ega ekanligini ta'kidlaydi".[14; 21-b.]

So'nggi o'n yilliklarda inson bir necha xil maydonlar bilan o'ralganligi tajribaviy yo'l bilan isbotlandi. Insonning fizik tanasidan tashqari yana o'z tabiatiga ko'ra torsion va elektromagnit oltita nozik ingichka jismga ega ekanligi ma'lum. Kirlian apparaturasi yordamida efir, astral va mental tanaga ega ekanligini fotografiyalar, ya'ni suratlardagi yorqinlik orqali ko'rish mumkin. Rasmlarda xudoga ibodat qilish davrida barmoqlar atrofidagi yorqinlikni va urushish, konflikt, salbiy gaplar aytilayotgan paytida negativ tuzilmalarning paydo bo'lishini kuzatish mumkin. "Ko'plab olimlarning fikricha, inson psixik hayotining barcha hodisalari ong biokompyuterining faoliyati bilan maydon aloqadorligi tamoyiliga asosan shartlangandir. Xalqaro nazariy va amaliy fizika instituti direktori A.Ye.Akimovning fikricha, individual ong funksional tuzilma sifatida o'z ichiga nafaqat miyani, balki hisoblash mashinasi kabi miya atrofidagi fizik vakuumni ham o'z ichiga oladi, ya'ni u o'ziga xos biokompyuterdir. A.V.Bobrovning tadqiqotlariga ko'ra, miya qoplami va fizik vakuum o'rtasida buzilmagan axborot almashinuvi ro'y beradi, ya'ni axborot miya tuzilmasi darajasidan fizik vakuum darajasiga va aksincha, fizik vakkum (torsion maydon) darajasidan ta'sirlangan neyronlar mozaikasi yaratilishiga o'tadi".[15;50-b.]

Amerikalik olimlar E.Nyuberg va D.Akili qanday qilib faoliyat yuritayotgan miyada meditatsiya, cheksiz Makonda erib ketish va boshqalar kabi qator holatlarning vujudga kelishini tushuntirib beradilar. Pensilvaniya shtati universiteti qoshidagi shifoxonada ishlab yurgan vaqtda buddistlarning meditatsiya paytida hamda fransiskan rohibalari miyasini tomografiya yordamida bir necha yillar davomida skanerlaganlar. Meditatsiya qiluvchilarning tomogrammalari o'rganilganda osoyishtalik, dunyo bilan qo'shilish sezgilari miyaning oldingi qismlaridagi faollikning kuchayishi va orqa qismlaridagi faollikning susayishi kuzatilgan. Aniqlanishicha, miyaning chap orqa qismidagi kichik maydon, ular tomonidan yo'naltiruvchi-assotsiativ maydon deb atalgan qismi o'ng yarim sharni bloklab, individual "men"ni o'rab turgan olamdan ajratishga xizmat qiluvchi chiziqni paydo qilarkan. Tomogrammalar tahlili meditatsiya va ibodatning eng yuqori nuqtasida miyaga keluvchi qon oqimi keskin kamayarkan, buning natijasida axborot maydoni "Men" va olam o'rtasidagi chegarani o'tkazish uchun kerak bo'lgan axborotdan forig' bo'larkan. O'ng yarim shar faollashib, inson o'zgargan holatlarni his etishi mumkin bo'larkan. Tadqiqotlar natijasida olimlar bunday o'zgargan ong holatlarining manbai hissiyotlar va xohishlar emas, balki miyaning genetik dasturlangan aloqadorliklari hisoblanadi. Shuning uchun E.Nyuberg "Aql asrida din gurkiramogda. Siz Xudoni fikr yordamida o'z hayotingizdan o'chirib tashlay olmaysiz, chunki diniy hissiyotlar aqlning emas, balki asosan sezgilar hosilasidir. [16;50-b.]

Ikkinchi guruh mualliflarining o'tkazgan tadqiqotlarini "umumlashtirib, ta'kidlash kerakki ularda ongning tabiati va mohiyati, uning miya va materiya bilan aloqadorligi tamoman boshqacha tushuniladi. O'tkazilgan tadqiqotlar ko'rsatmoqdaki, lokal bo'lmagan tabiatga ega, ya'ni faqat miyaning funksiyasi emas, balki butun Koinot bilan bog'liq bo'lib, ham kosmik, ham ijtimoiy-ma'naviy, ham individual-psixik jarayonlar bilan bog'liq murakkab ko'p qavatli tuzilmaga ega".[8; 226-b.] Mazkur paradigmada har bir insonning ongi guruh, sotsium, Yer va Kosmosning axborot maydonlari iyerarxiyasiga kiradi va qatnashadi. Bunday tushunish ongning o'zgargan holatlarini (meditatsiya, ibodat va b.) tushuntirish imkonini beradi.

Ongni tadqiq etishning ikkala yo'nalishni ko'rib chiqish natijasida quyidagi xulosalarga olib keladi: zamonaviy analitik falsafa va fan uchun ongning o'zgargan holatlarini tushuntirish katta qiyinchiliklar tug'diradi. Ular o'z mazmuniga ko'ra subyektivdir, bunday holatlarning xossalari empirik tavsiflash murakkab va ularni eksperimental nazorat qilish qiyin yoki mumkin emas. Ikkinchi yo'nalish nuqtai-nazari metodologik jihatdan qimmatliroqdir. Chunki ular nafaqat o'zgargan ong holatlarining ba'zilarining sabablarini tushuntiradilar, balki butun tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar kompleksining keyingi taraqqiyotiga yo'naltirilgan. Uning kontekstida ong muammosi o'zining chuqurroq yechimiga ega bo'lib boradi.

Xulosa.

1. Falsafada ong muammosi qadimgi davrlardan boshlab turli falsafiy oqimlar tomonidan muhokama qilinib kelingan. Materialistik va idealistik hamda dualistik nuqtai-nazarlar mavjud bo'lgan. Ongning miya bilan aloqadorligi tan olingan.
2. Materialistik yondashuvga ko'ra ong materiya-inson miyasining funksiyasi bo'lib, olamni ideal obrazlarda aks ettirishdir. In'ikosning insonga xos oliy shaklidir. Idealistik nuqtai-nazarga ko'ra ong oliy boshlang'ich, ruhiy ibtidoning kichik bir bo'lagining inson tanasida namoyon bo'lishidir.

3. Hozirgi zamon tadqiqotlarida ong muammosiga yangicha yondashuvlar vujudga kelgan. Ularga A.Pereyraning uch aspektli monizm, proyektiv nazariyasini keltirish mumkin.
4. Zamonaviy ong muammosi tadqiqotlarini ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi, analitik falsafa va dialektik materializm yondashuvlarini keltirishimiz mumkin. Ikkinchisi, koinotning to'qinsimon axborot maydoni, amerikalik tadqiqotchilarning ong o'zgargan holatlarini tushuntiruvchi eksperimental xulosalarini keltirish mumkin.
5. Hanuzgacha og'ir ong muammosi muhokama etilmoqda va unga tugal javob topish fanlararo tadqiqotlarni taqozo qiladi.

Adabiyotlar/Literatypa/References:

1. Pereira Jr.A. Triple-aspect monism: physiological, mental unconscious and conscious aspects of brain activity// Journal of Integrative Neuroscience. 2014. Vol. 13, No. 2. P. 201-227.
2. Момбей-оол С.М. ва Ситников В.Л. Структура и содержание Я-, Он- образов в сознании молодежи в Республике Тыва// Вестник университета, 2020. № 2. С.201-210
3. Книгин А.Н. Философские проблемы сознания. Томск. Томский государственный университет, 2006.
4. Михайлов И.Ф. Человеческий мозг и сознание:биология или вычисления//Философские проблемы информационных технологий и киберпространство.- 2018. №2. С.92-110
5. Ковшов Е.М. Две тенденции исследования сознания и его измененных состояний в современной философии и науке//Философские науки. -2019. № 10.С.45-48.
6. Каримов Б.Х. Инсон онги муаммосининг фалсафий ва психологик жиҳатлари//Psixologiya. – 2019 №4. Б.93-99
7. Хакбердиев А.К. Онг ҳақидаги тасаввурларнинг ривожланишида фалсафий қарашлар//International Conference on Research in Sciences, Education and Humanities Hosted from Basel, Switzerland <https://conferencea.org> December 30th 2021. P.12-14
8. Ковшов Е.М. Две тенденции исследования сознания и его измененных состояний в современной философии и науке//философские науки. 2019.№ 10.С.45-48
9. Васильев В.В. «Трудная проблема сознания»: Прогресс-Традиция; Москва; 2009.
10. Ревонсуо А. Психология сознания. Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2013. С.254
11. Козлов В.В. Трансперсональная психология. М., 2010. С. 279
12. Ковшов Е.М. Две тенденции исследования сознания и его измененных состояний в современной философии и науке//философские науки. 2019.№ 10.С.45-48
13. Казначеев В.П., Трофимов А.В.Очерки о природе живого вещества и интеллекта на планете Земля: Проблемы космопланетарной антропоэкологии. Новосибирск: Наука, 2004.
14. Дубров А.П. Сверхслабое ментальное взаимодействие как основа когнитивной психофизики // Сознание и физическая реальность. 2004. Т. 9. № 5. С.21.
15. Бобров А.В. Полевая концепция механизма сознания // Сознание и физическая реальность. 1999. С.47-59.
16. Хроника // Наука и религия. 1999, № 7.С.50.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).